

YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION FORSAYTNING O'RNI

Sunnatov Nurali Bekmurodovich
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti
Tel: 97 366-68-33 e-mail:Sunnatov_1979@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishda innovatsion forsaytning o'rnini atroflicha tahlil etilgan. Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishda innovatsion forsaytning o'rnini shaxsning eng muhim jihatlari yoritib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Forsayt, Tadbirkorlik, kredit, startap, tashabbus, Biznes, davlat dasturi. Innovatsion ta'lim, innovatsiya, ijod, faoliyat, ta'lim.

РОЛЬ ИННОВАЦИОННОГО ФОРСАЙТА В РАЗВИТИИ МОЛОДЕЖНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА

Суннатов Нурали Бекмуродович
доктор философии по философским наукам (PhD),
Навоийский государственный горный и технологический университет
Tel: 97 366-68-33 e-mail:Sunnatov_1979@mail.ru

Аннотация: В данной статье подробно анализируется роль инновационного форсайта в развитии молодежного предпринимательства. Выделена роль инновационного форсайта в развитии молодежного предпринимательства и важнейшие аспекты личности.

Ключевые слова: Форсайт, предпринимательство, кредит, стартап, инициатива, бизнес, государственная программа, инновационное образование, инновации, творчество, активность, образование.

THE ROLE OF INNOVATION FORESIGHT IN THE DEVELOPMENT OF YOUTH ENTREPRENEURSHIP

Sunnatov Nurali Bekmurodovich
Doctor of Philosophy in Philosophy (PhD),
Navoi State Mining and Technological University
Tel: 97 366-68-33 e-mail:Sunnatov_1979@mail.ru

Rezume: This article analyzes in detail the role of innovation foresight in the development of youth entrepreneurship. The role of innovation foresight in the development of youth entrepreneurship and the most important aspects of personality are highlighted.

Keywords: Foresight, entrepreneurship, credit, startup, initiative, business, government program, innovative education, innovation, creativity, activity, education.

KIRISH.

Ta'lim ehtiyojlarini innovatsiyalar qay darajada to'la qondirsa, jamiyat hayoti boshqa sohalarining rivojlanishiga uning ta'siri shu darajada kuchli ta'sir etadi. Ayni shu sababli fan va ta'lim tizimi o'rtasida vujudga kelgan tafovutni bartaraf etish oliy ta'lim tizimining kun tartibida turgan muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu oliy ta'lim tafakkurni ijodiy rivojlantirishni nazarda tutishini anglatadi, zero bugungi kunda hayot tinimsiz ilgari suruvchi noan'anaviy vazifalarni echish muhim ahamiyat kasb etadi. Demak, bilimni muttasil yangilash va undan foydalanishni tarbiyalash ta'lim innovatsiyalarining muhim xossasi hisoblanadi. Bu esa, o'z navbatida, global dunyoqarashni shakllantirishni nazarda tutadi.

Forsayt bu — inglizchadan tarjima qilinganda kelajakka nazar, degan ma'noni anglatib, biror bir voqea, jarayon, hodisani bir necha yil oldinga nazar tashlagan holda kelajakdagi holatini ko'zdan kechirishni nazarda tutadi. Forsayt orqali turli sohalaridagi hozirgi holat, muammolarni aniqlagan holda, uning yaqin va uzoq istiqboliga nazar solib, soha rivojiga hissa qo'shadigan echimlar, yo'nalishlar aniqlanadi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan yoshlarga oid davlat siyosati navqiron avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularning intilish va tashabbuslarini qo'llabquvvatlash, iste'dod va salohiyatini keng namoyon etishi uchun sharoit va imkoniyatlar yaratishga xizmat qilmoqda. Zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega, mamlakatning munosib kelajagi uchun javobgarlikni o'z zimmasiga ola biladigan barkamol, maqsadga intiluvchan va serg'ayrat yoshlarni tarbiyalash mamlakatni barqaror va ildam rivojlantirishning eng muhim shartidir. So'nggi yillarda yoshlarning intellektual va ijodiy salohiyatini namoyon qilish, ularning fuqarolik javobgarligini va olib borilayotgan islohotlarga daxldorligini oshirish borasida ulkan ishlar amalga oshirildi. Birgina 2016-yil 14-sentyabr "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi yoshlarga katta e'tibor berilayotganing dalilidir. Bundan tashqari Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmonining 4.5-bandi "Yoshlarga

oid davlat siyosatini takomillashtirish” deb nomlanib, undan quyidagi ustuvor yo‘nalishlar belgilanib olindi:

- jismonan sog‘lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat’iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish;

- o‘rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirish hamda xususiy tadbirkorlik sohasiga jalb etish;

- yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo‘llabquvvatlash va ro‘yobga chiqarish, bolalar va yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, ularni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish;

- yoshlarni ijtimoiy himoya qilish, yosh oilalar uchun munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy sharoitlarni yaratish;

- yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, ta’lim muassasalari, yoshlar va boshqa tashkilotlarning samarali faoliyatini tashkil etish[1].

Bundan tashqari “Yoshlar — kelajagimiz” davlat dasturi qabul qilindi va u yoshlarning biznes tashabbuslari, startaplari, g‘oyalari va loyihalarini ro‘yobga chiqarishga ko‘maklashish va qo‘llab-quvvatlash, band bo‘lmagan yoshlarni mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan mutaxassisliklar va biznes yuritish ko‘nikmalariga o‘qitish, shuningdek, umuman yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish orqali ularning bandligini ta’minlashga qaratilgan. Bu borada Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ta’kidlab o‘tkanlaridek, 2018-yilda bir qator tizimli ishlar olib borildi va “Har bir oila-tadbirkor”, “Yoshlar-kelajagimiz” kabi dasturlar doirasida 2 trillion so‘mga yaqin mablag‘ ajratilib, joylarda 2 ming 600 dan ortiq biznes loyihalari amalga oshirildi. “Yoshlar kelajagimiz” davlat dasturi doirasida “Yoshlar kelajagimiz” jamg‘armasi tuzildi va jamg‘arma faoliyati asosan yoshlar tadbirkorligini qo‘llash, yoshlar bandligini ta’minlashga qaratildi va jamg‘armaning quyidagi asosiy vazifalari belgilandi:

a)Tadbirkorlik sub'yektlarining loyihalarini amalga oshirish uchun tijorat banklari orqali yillik 7 foiz stavka bilan (bunda, bank marjasi 2 foizni tashkil etadi) imtiyozli kredit va mol-mulkni lizingga berish;

b)Tadbirkorlik sub'yektlariga Davlat dasturi doirasida beriladigan tijorat banklari kredit miqdorining 50 foizigacha, ammo 1 mlrd.so'mdan oshmaydigan miqdorda jamg'arma kaflligini berish; Bunda, jamg'arma tomonidan taqdim etiladigan kaflliklarning umumiy miqdori jamg'arma mablag'larining 25 foizidan oshmasligi kerak.

v)Davlat dasturi doirasida amalga oshiriladigan tadbirkorlik sub'yektlari loyihalarida ular qiymatining 50 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda ishtirok etish, keyinchalik, jamg'arma ulushini 5 yil davomida realizatsiya qilish;

g)Tegishli ko'nikmalarga ega, band bo'lmagan yoshlar yashaydigan uy xo'jaliklari uchun 20 tagacha parranda va quyon bolasi, 5 ta mayda va 2 ta yirik qoramol sotib olish, ularning qiymatini kelishilgan muddatlarda qaytargan holda ularni boqish va keyinchalik realizatsiya qilishda ko'maklashish[2]. Bundan ko'rinib turibdiki, hozirgi kunda yoshlar tadbirkorligiga va yoshlarni bandligini ta'minlashga katta e'tibor berilmoqda. Bu borada juda katta ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, joylarda yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirishga, ularni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilishga, yosh tadbirkorlarning istiqbolli g'oyalari va loyihalarini ro'yobga chiqarishga, shuningdek, shu asosda yoshlar bandligini ta'minlashga to'sqinlik qilayotgan tizimli muammolar hanuzgacha saqlanib qolmoqda. Xususan, yoshlar tadbirkorligini kompleks rivojlantirish va yoshlarni tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishga faol jalb qilish bo'yicha joylarda maqsadli dasturlar amalga oshirilmayapti hamda zarur infratuzilma yaratilmagan, bu esa, yangi ish o'rinlari yaratishning eng muhim sharti hisoblanadi. Joylarda davlat organlari va tashkilotlarining mansabdor shaxslari yoshlarning tadbirkorlik savodxonligini oshirishga, ularga biznes tashkil etish va yuritish ko'nikmalarini singdirishga hali ham befarq va beparvo munosabatda bo'lmoqda Bugungi kunda mamlakatimiz aholisining taxminan 60% ni yoshlar tashkil qilmoqda. Bundan ko'rinadiki, hozirda yoshlar tadbirkorligini

rivojlantirish va yoshlar bandligini ta'minlash mamlakatimiz oldida turgan asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Yoshlar innovatsion g'oyalari va biznes rejalariga investitsiyalar jalb etish bugungi kunning asosiy masalalaridan biridir. Bundan tashqari yoshlarga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun erkinliklar va sharoitlar yaratib berish tizimini takomillashtirish va turli imtiyozlar berish orqali ularda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishga bo'lgan tashabbuslarini yanada oshirish orqali mamlakatimiz iqtisodiy o'sishini ta'minlashga erisha olamiz. Kelajakda yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish, ularga ichki va tashqi investitsiyalar jalb qilish va yoshlar bandligini ta'minlashga quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali erisha olamiz:

- yoshlarning biznes tashabbuslari, startaplari, g'oyalari va loyihalarini ro'yobga chiqarishga ko'maklashish;

- band bo'lmagan yoshlarni mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan mutaxassisliklar va biznes yuritish ko'nikmalariga o'qitish;

- chorvachilik bilan shug'ullanish uchun imtiyozli kredit va mol-mulkni lizingga berish;

- davlat-xususiy sheriklik (DXSh) shartlarida "Yosh tadbirkorlar" kovorking markazlarini, shuningdek savdo-maishiy va kichik ishlab chiqarish maydonlarini tashkil etish uchun mehnat kuchi haddan ziyod bo'lgan tumanlarda "Yoshlar mehnat guzari" komplekslarini qurish;

- davlat dasturi tadbirlarini moliyalashtirish uchun O'zbekiston yoshlar ittifoqi huzurida "Yoshlar - kelajagimiz" jamg'armasini va uning tuman va shahar filiallarini tashkil etish[3].

Hozirgi kunda mamlakatimizda yoshlar tadbirkorligiga investitsiyalar kiritish va shu orqali yoshlar innovatsion g'oyalarini, startaplarini va biznes loyihalarini moliyalashtirish muhim hisoblanadi. Bundan tashqari, yoshlar bandligini ta'minlash tizimini takomillashtirish, yoshlar orasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash mexanizimini takomillashtirish, yoshlarni ish bilan ta'minlashda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik roli va ahamiyatini oshirish, yuqori texnologiyalarga asoslangan tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish,

yoshlarni tadbirkorlikka jalb etish va yoshlarning innovatsion g'oyalariga va startaplariga investitsiyalar jalb etish va shu orqali mamlakatimizda tadbirkorlikni rivojlantirish bugungi kunda iqtisodiyotimizning barqaror o'sishiga erishishni ta'minlashning eng muhim omillari bo'lib hisoblanadi.

Xulosa

Dunyoda ta'lim mamlakatning iqtisodiy barqarorligi omili, insonning ma'naviy kamoloti, shaxslararo munosabatlarda tenglik, bilim va e'tiqod uyg'unligini ta'minlash vositasi sifatida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yagona ta'lim makonini yaratish, dunyoda tinchlikni qaror toptirish omili ekanligi ayon bo'lmoqda. Innovatsiyaga tizim sifatida yondashish muammoning yana bir qismini dolzarblashtiradi: bugungi kunda nazariy tadqiqotlarda ham, pedagogik voqelikda ham ko'p ishlatilayotgan «ta'limga oid innovatsiya», «pedagogik innovatsiya» tushunchalari yashash huquqiga egami?, bizning fikrimizcha, bu erda muammo ta'limga oid innovatsiyaning fenomenologik mustaqillik huquqi inkor etilishida namoyon bo'ladi[4]. Biroq, asosiy muammo bunda emas. Ta'limga oid yoki pedagogik innovatsiyaning predmeti nima? Mazkur ijtimoiy-madaniy fenomenning madaniy chegarasi qanday? Uning asoslari nimada? Boshqacha aytganda, bu erda gap innovatsiyalar tipologiyasi, ularning o'ziga xos xususiyati haqida boradi va bu muammoni echish kishilarning mavjud mehnat taqsimoti asosida shakllangan kasbiy faoliyatining u yoki bu sohasida innovatsion jarayonlarni samarali boshqarishni amalga oshirish uchun juda muhimdir[5].

Adabiyotlar:

1.Sh. Mirziyoyev "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" to'g'risidagi farmoni, PF-4947

2.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.// Xalq so'zi, 2018 yil 29 dekabr.

3.“Yoshlar-kelajagimiz” Davlat dasturi to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni. 27.06.2018.yil

4.Суннатов, Н. Б. (2021). ИННОВАЦИИ КАК ФАКТОР СТАБИЛЬНОГО РАЗВИТИЯ. Аль-Фараби, 74(2).

5.Суннатов, Н. Б. (2021). ПОНЯТИЕ «ПРОФЕССИОНАЛЬНЫЕ НАВЫКИ» В ИННОВАЦИОННОМ ОБРАЗОВАНИИ. apni. ru Редакционная коллегия, 27.

6. Sunnatov, N. B. The Unity of Theory and Practice In the Innovative Transformation of the Educational Space.

7. Sunnatov, N. B. (2020). FEATURES OF THE INNOVATIVE TYPE OF PERSONALITY IN THE CONTEXT OF GLOBALIZATION. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 2(8), 182-185.

8.Суннатов, Н. (2020). Инновацион фаолият-таълимнинг ривожланиш усули сифатида. Глобальное партнерство как условие и гарантия стабильного развития, 1(1), 85-87.